

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI

Munojat Buzrukova

O'zbekiston Milliy universiteti filologiya yo'naliishi 2-bosqich talabasi

Munojatbuzrukova2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining boy adabiy tarixi, adabiyoti qolaversa mumtoz adabiyotining zamonlar osha sayqallanib, dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: "Avisto", Temuriylar davri adabiyoti, Sayfi Saroiv, Navoiy, Bobur, Xorazmiy.

Annotation: This article discusses the rich literary history of the uzbek people, as well as the role of classical literature in the world community.

Key words: "Avesto", Literature of the Timurid period, Sayfi Saroiv, Navoiy, Bobur, Xorazmiy.

Badiiy adabiyot tabiat gultoji sanalmish hazrati inson bilan egizak dunyo yuzini ko'rgan san'at turlaridan biridir. Inson yaratilibdiki, o'zi yashayotgan borliq sir-u sinoatlari bilan oshno bo'lgisi, ulardan yuksak shavq-zavq olgisi, ichki kechinmalari, orzu-tilishlari, ruhiy holatlarini o'zigagina hadya etilgan oliy ne'mat so'zda badiiy, bo'yogli tarzda ifodaligisi keladi.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi xalqimizning qadim zamonlardan XIX asrning o'rtalarigacha vujudga kelgan noyob badiiy durdonalari haqida baxs yuritadi. Tabiiyki, bu ming yilliklarga cho'ziladigan jarayonda dunyo yuzini ko'rgan badiiy asarlarda xalqimizning dastlabki e'tiqodiy qarashlaridan tortib, XIX asrning o'rtalarigacha yshab ijod qilgan qalamkashlarimizning irfoniyl-falsafiy, adabiy-badiiy, ilohiy-ma'naviy qarashlari o'z ifodasini topgan. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi mana shu uzoqqa cho'zilgan murakkab jarayonda vujudga kelgan turli xil va janrlardagi badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Nazm va epos asrlar davomida o'zbek

mumtoz adabiyotining asosiy xillaridan bo‘lib, taraqqiy topib keldi. G‘azal, ruboiy, qasida, masnaviy, muxammas, musaddas, qit‘a, tarje’band, tarkibband,(v,k) masal, hikoya va shu kabilar keng tarqalgan adabiy janrlar sanaladi. Kishilik tarixida yozuv paydo bo‘lmasdan avval badiiy ijod og‘zaki shaklda taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Yozuv insoniyatning eng muhim kashfiyotlaridan biridir.

O‘zbek adabiyotini bo‘limlarga bo‘lib o‘rganar ekanmiz, avvalo Qadimgi yodgorliklardan boshlasak. Qadimgi yodgorliklar deganimizda avvalo xayolimizga bitiktoshlar yanada oydinroq qilsak “Avesto” keladi. “Avesto”- jahon madaniyatining , jumladan Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. Zardushtiylik e’tiqodiga amal qiluvchilarining muqaddas kitobi sifatida Yagona Tangriga topinish shu ta’limotdan boshlangan. Bu kitob tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turadi. “Avesto”da tilga olingan joy nomlari (Varaxsha, Vaxsh)dan kelib chiqib, uning Amudaryo sohillarida yaratilgani aniqlangan. Shu asnosda uning vatani Xorazmdir degan qarash mavjud. Endi esa Temuriylar davri adabiyotiga to‘xtalsak.

Temuriylar davri adabiyoti(XIV-XV asrlar) Bu davrda yashab ijod qilgan ulamolar ichida Sayfi Saroiy ham bor edi. Sayfi Saroiy o‘zbek mumtoz adabiyotining iste’dodli vakillaridan biri. Xorazm yaqinidagi Qamishli qishlog‘ida tug‘ilgan. Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroy shahrida yashagan. Hayotining so‘nggi yillarini Misrda o‘tkazgan va u yerda vafot etgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotining zabardast, buyuk , o‘zidan boy ijodiy meros qoldirgan shaxslaridan biri bu Navoiydir. Navoiy desa butun jahon bizning mumtoz adabiyotni tushunishi u kishining qanchalik adabiyot uchun qo‘sghan hissalarini ko‘rsatadi. Alisher Navoiy jahondagi eng sermahsul ijodkorlar sirasiga kiradi. Uning 100000 baytdan ortiq lirik va epik asarlari jahon madaniyati xazinasiga beba ho hissa bo‘lib qo‘sildi. Navoiy qoldirgan ilmiy-adabiy meros hayratlanarli darajada ulkandir. Shoirning epik asari “Xamsa”, to‘rt lirik devonni o‘z ichiga oluvchi “Xazoyin-ul maoniy” asari, falsafiy dostoni “Lison-ut tayr”, tarixga oid “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki ajam”, adabiyotshunoslikka oid “Mezon-ul avzon”, “Majolis-un nafois”, tilshunoslikka oid “Muhokamat-ul lug‘atayin”, axloqiy-

falsafiy asari “Mahbub-ul qulub”, tasavvuf tarixiga oid “Nasoyim-ul muhabbat”, ruboiylar majmuasi “Nazmul javohir”, diniy mavzudagi “Arbain”, “Siroj-ul muslimin”, xotiralari “Xamsatul mutahhayirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardascher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, maktublar to‘plami “Munshaot”, vaqf ishlari haqida “Vaqfiya” va boshqa bir qator asarlari xalqimizning ma’naviy-madaniy mulki bo‘lib qolmoqda. Navoiy o‘zining “Muhokamatul-lug‘atayn”da turkiy xalq va qabilalar, qavmlar tili, Movarounnahr va Xurosondagi irqiy hamda shevaga xos manzara alohida tilga olingan. Yetmish ikki til, yeti iqlimning har birida necha mamlakat va viloyat borligi, har qaysi mamlakatda qancha shahar, qishloq, kent mavjudligi, bu joylarda, dashtlarda, orollarda, daryo sohillarida turli ulus va qabilalar yashashi, turkiy tillar, turkiy lahja hamda shevalar to‘g‘risida qayd etiladi. Navoiy dahosining qudrati shunda kuzatiladiki, u o‘zining amaliy-badiiy faoliyati bilan turli til, lahja va shevalarga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni umumlashtirdi. Shu tariqa yagona adabiy tilga asos solib, uni yuqori cho‘qqiga olib chiqdi.

Komil Xorazmiy. Xorazmiy jahon madaniyatining Xorazmdagi ilk targ‘ibotchilaridan biri. Xiva madrasasida o‘qigan. Arab va fors tillarini mukammal bilgan. Sharq adabiyoti nomoyondalari ijodini, mumtoz musiqani, xattotlik sirlarini qunt bilan o‘rgangan. Ogahiy uning nomini o‘zining “Gulshani davlat” kitobiga kiritgan. Xorazmiy 1825-yilda Xivada tavallud topgan. Feruz zamonasida mirzaboshi, devonbegi lavozimlarida ishlagan. Komil Xorazmiy mumtoz musiqasi, xususan, maqomchilik an’analarini rivojlantirishga homiylik qilgan, o‘zbek kuylarini yozib olish uchun “Tanbur chizig‘i” deb ataluvchi nota tizimini joriy etgan. Xorazmiy-lirk shoir. Uning lirikasida insoniy muhabbat va fazilatlar ulug‘lanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Rahim Vohidov “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” Toshkent-2006
2. Adabiyot majmua (Toshkent-2017)
3. Ziyo internet sayti.
4. Ma’rifat” jurnali